

“TASDIQLAYMAN”
Ilm-fanni moliyalashtirish
va innovatsiyalarni qo‘llab-
quvvatlash jamg‘armasi ijro etuvchi
direktori o‘rinbosari



2024-yil 9 -avgust

Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash
jamg‘armasida o‘tkazilgan yig‘ilishi
BAYONI № 4

2024-yil “09” avgust

Toshkent sh.

Raislik qiluvchi:	- Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi ijro etuvchi direktori o‘rinbosari Sh.Djanizakov
Qatnashdilar:	Jamg‘arma xodimlari
Bayonni olib boruvchi:	Kamalova Dilorom

KUN TARTIBI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi PQ-210-son qarori talablaridan kelib chiqib, manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish va aniqlashda ishtirok etadigan xodimlarga ishonib topshirilgan yoxud ularga kasbiy, xizmat yoki mehnat majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan ma’lum bo‘lib qolgan shaxslarning shaxsga doir ma’lumotlarini oshkor etishga yo‘l qo‘yilmasligi yuzasidan mas’ul xodimlarni ogohlantirish ishlarni amalga oshirilishini ta’minlash yuzasidan

(Djanizakov, Chaqqonov, Kamalova, Tursunqulov, M.Jo‘rabekov, Djanizakov)

Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi ijro etuvchi direktori o‘rinbosari Sh.Djanizakov kun tartibidagi masala yuzasidan so‘zga chiqdi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi PQ-210-son qarori talablari asosida, manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish va aniqlashda ishtirok etadigan xodimlarga ishonib topshirilgan yoxud ularga kasbiy, xizmat yoki mehnat majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan ma’lum bo‘lib

qolgan shaxslarning shaxsga doir ma'lumotlarini oshkor etishga yo'l qo'yilmasligi yuzasidan mas'ul xodimlarni ogohlantirish ishlarni amalga oshirilishi, bunda, yuqorida mas'ul xodimlar: Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 462-moddasi (Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzish) yetkazilib, ular shaxsga doir ma'lumotlarni qonunga xilof ravishda yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, ulardan foydalanish, ularni berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish va yo'q qilish, xuddi shuningdek axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'ida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berilayotganda jisman O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan texnik vositalarda hamda shaxsga doir ma'lumotlar bazalarining davlat reestrda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan shaxsga doir ma'lumotlar bazalarida ma'lumotlarni yig'ishga, tizimlashtirishga va saqlashga oid talablarga rioya etmaslik, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravari, mansabdor shaxslarga esa – ellik baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'lishi, Jinoyat kodeksining **141²-moddasi** (Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzish) yetkazilib, shaxsga doir ma'lumotlarni qonunga xilof ravishda yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, ulardan foydalanish, ularni berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish va yo'q qilish, xuddi shuningdek axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'ida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berilayotganda jisman O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan texnik vositalarda hamda Shaxsga doir ma'lumotlar bazalarining davlat reestrda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan shaxsga doir ma'lumotlar bazalarida shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ishga, tizimlashtirishga va saqlashga oid talablarga rioya etmaslik, o'sha harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanishi belgilangan.

Shuningdek, mas'ul xodimlar ma'lumot tariqasida: shaxsga doir ma'lumotlar – muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog'ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborotligi (02.07.2019 yildagi O'RQ-547-son Qonun); shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanish bu ma'lumotlarning zarur darajada himoya qilinishini ta'minlash sharti bilan faqat ushbu shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish bo'yicha ilgari bildirilgan maqsadlar uchun amalga oshirilishi mumkinligi; o'ziga ishonib topshirilgan yoki kasbiy, xizmat yoxud mehnat majburiyatlarini bajarishi sababli ma'lum bo'lib qolgan shaxsga doir ma'lumotlarning oshkor etilishiga yo'l qo'yilmasligi keltirilgan.

Kun tartibidagi masalani har tomonlama chuqur muhokama qilib, yig'ilish **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi PQ-210-son qarori talablari asosida manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish va aniqlashda ishtirok etadigan xodimlarga ishonib topshirilgan yoxud ularga kasbiy, xizmat yoki mehnat majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan ma'lum bo'lib qolgan shaxslarning shaxsga doir ma'lumotlarini oshkor etishga yo'l qo'yilmasligi yuzasidan mas'ul xodimlar qat'iy ogohlantirilsin.

2. Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, o'z xizmat vazifalarini bajarish davrida belgilangan tartibning buzilishiga yo'l qo'ygan taqdirda, qonunchilikda belgilangan jazolar qo'llanilishi bo'yicha ogohlantirilsin.

3. Kadrlar bo'yicha inspektor (D.Kamalova) mazkur bayon bilan Jamg'armaning barcha xodimlarini tanishtirsin.






4. Mazkur bayonda belgilangan topshiriqlar ijrosini tashkil etish va nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Yig'ilish kotibi



D.Kamalova

2024 yil 9-avgustda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishi bayoni bilan tanishtiruv varag‘i

	F.I.Sh	Lavozimi	Imzo
	Chaqqonov O.	Bosh yuriskonsult	
	Kamalova D.	Kadrlar bo'yicha inspektor	
	Ramazanov J.	Bosh mutaxassis	
	Abdullayev N.	Yetakchi mutaxassis	
	Shomutalov J.	Bo'lim boshlig'i v.v.b	
	Imamov Sh.	Bosh mutaxassis	
	Sharifov F.	Yetakchi mutaxassis	
	Jo'rabekov M.	Bo'lim boshlig'i	
	Tursunqulov M	Yetakchi mutaxassis	
	Pardaboyev Y	Bosh mutaxassis	